

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA`LIM VAZIRLIGI

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedgogika instituti

Jismoniy madaniyati fakul`teti

Jismoniy madaniyat mutaxassisligi
(5112000)

3- D kurs talabasi Artikbaev Shamshetdin Srajadinovichning
«**Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi**» fanidan

KURS ISHI

Tema: Chidamlilik va uni rivojlantirishning
jismoniy tarbiyasi

Bajargan.

Sh. Artikbaev

Qobillagan.

T. Iskenderov

NUKUS-2015 yil

1. Kirish

2. Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi

3. Sifatlarni rivojlantirishda tabiatning sog`lomlashtiruvchi kuchlari.

4. Xulosa

5. Adabiyotlar

KIRISH

Jismoniy tarbiya ta'limi jaraenida «uqitish» muhim urinni egallaydi. Bu jaraenda harakat faoliyatini eki uning ma'lum bulagini bajarishga urgatiladi, bu harakatni mashq qilish-takrorlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu jaraen. Uz navbatida shug`ullanuvchida shu harakat haqida nazariy bilimning shakllanishiga, jismoniy sifatlarni rivojlantirilishi tarbiyalanishiga olib keladi. Demak jismoniy tarbiya jaraenida ta'lim maxsus bilim va harakatni bajara olishni uzlashtirish va uni uqvchiga quyishdir, eki jismoniy ma'lumot berishdir.

Uqitish praktikasida «harakat faoliyati ta'limi», «harakatka urgatish», «harakat malakasi», «harakat kunikasi», «nazariy bilim», «qila bilish», «tarbiyalash», «rivojlantirish» va hokazodek atamalardan foydalaniladi. Maqsad bitta u ham bulsa, yuqorida qayd qilinganidek jismoniy ma'lumot berishdir.

«*Harakat faoliyatini urganish*» (eki jismoniy mashqni),-nisbatan qisqa pedogogik vazifadir. «Harakat faoliyatini urganish» (eki jismoniy mashqni uqitish) atamasi harakat faoliyati aniq bulib uning nazariy bilimi berilgandagina qullaniladi.

Harakat faoliyatining tarkibiga bir necha harakatlar kiradi, undan bu atmaga loyiq bulgan «harakatlarga urgatish» iborasi qullaniladi. Harakat faoliyatini urgatishda (uqitishda) harakat malakasi shakllanadi, kunikma vujudga keladi, bir vaqtning uzida muvofiq jismoniy harakat sifatlari, kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, muskullar egiluvchanligi va bug`inlar harakatchanligi rivojlanadi. Shu sababli pedogogik jarenda e'tibor aniq bir narsaga, ta'limga (malakani shakllantirishga) eki harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Harakat faoliyatini uqitishning xususiyatlari. Harakat faoliyatining uqitish jarenida faqatgina bilim berish va tarbiyalash vazifalari qushib hal qilinmay, sog`lomlashtirish vazifasi ham hal qilinadi. Hech qaysi umumta'lim predmetida bunchalar yaqqol namoen bulmaydigan sog`lomlashtirish vazifasi harakat faoliyatini uqitishda erkin namoen buladi.

vositasi

Jismoniy mashqlar shakli va mazmuni uzaro bog`lik bulib, bir-birini taqoza etadi. Mazmunining shakliga nisbatan asosiy rol ni uynaydi. Masalan har qil masofada tezlik sifatining namoen bulishi yugurish texnikasining ham turlicha bulishiga sababchi buladi, (qadamning kattaligi, chastotasi, tananing xolati va h k). Shakl mazmunga ta`sir kursatadi. Aniq ma`lum bir harakat uchun namoen bulaetgan jismoniy sifatlar shu jismoniy mashqin bajarishdagi malakaga ta`sir qiladi. Shuning uchun suzuvchi kuchi bilan gimnastikachi kuchi, shtangachi kuchi bir biridan farqlanadi. Jismoniy mashqni shakli va mazmunining ratsional muvofiqliliga erishish jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyatining asosiy muammolarilidir. Bu muammo qisman harakat malakasi va kunikmasi, shuningdek jismoniy sifatlariga ham ta`luklidir.

Jismoniy mashq texnikasi. Har qanday harakat akti harakat faoliyati tarikibidan ikki narsani

- a) bajarialaetgan harakat, uni bajarishdan kelib chiqadigan maqsad.
- b) harakat vasifasini hal qilish usulini farqlash kerea buladi.

Kupincha bil hil harakat turli uslubiyatlarda bajariladi, masalan balandlikka sakrashda plankaga tug`ridan, chap ung tomonlardan yugurib kelish va plankaga yaqin eki undan uzoqdagi oeq bilan depsinish mumkin. Aslida esa shu mashqni yuqorida kayd qilinganidan boshqacharoq, oson, oz energiya sarflab belgilangan harakatni (vazifani) samarali hal tish usuli mavjud buladi.

Harakat vazifasini oson samarali hal qilish uchun tanlangan harakat akti (faoliyati)ni jismoniy mashq texnikasi deb atash qabul qilingan.

Texnika-grekcha suz bulib «bajara olish san`ati» degan ma`noni bildiradi. Jismoniy mashq texnikasi doim uzgarib turadi va takomillashadi. Takomillashgan harakat texnikasi yuqori natija kursatish garovi bulib unga sportchilarning tinimsiz ter tukishi orqali erishiladi. Sportchi ning jismoniy taergarligini ortishi eki uning gavdasi tuzilishi (anatomiyasi), boshqacha aytganda jismoniy rivojlanganlikni kursatuvchi kursatkichlarining turli tumanligi (son suyagini kaltali eki uzunligi elka suyagi ulchamining turli xilligi va h k) sport turi-jismoniy mashqlar bajarish texnikasini asosini uning zvenolari eki detallarini uzgarishiga, almashishiga sabab bulishi mumkin.

Texnika uning a s o s i , z v e n o l a r i va d e t a l l a r i g a bulib urganiladi.

T e x n i k a n i n g a s o s i deganda harakat vazifasini bajarish uchun kerak buladigan harakat faoliyati tizimining uzak qismi tushuniladi. Qullangan usullar tananing qismlarini uzaro kelishgan holda, harakat aktining ketma-ketligi tizimini buzmay, jismoniy sifatlariga (kuch tezkorlik, chaqqonlik, musklar egaluvchanligi va bug`inlar haraaktchanligi)ning keraklicha namoen amaliytda unumli kullanishi mumkin va uzoq vaqt uzining haetiy-amaliyligini saqlab

qoladi. Masalan balandlikka sakrashning «Fosberi-flon» usuli samarali bulsa ham hozirgacha kupchilik sportchilar «perikidnoy» usulidan foydalanadilar. Yangi urganuvchilar uchun hozirgi kunda «qadamlab sakrash» usulidan foydalanilish sakrash texnikasini uzlashtirishda kereakli samara beradi.

T e x n i k a n i z v e n o s i deyilganda bajaralagetgan haraaktning asosiy mexanizmi sakrashlarda-depsinish, uloqtirishlarda final kuch sarflashni bajarish uchun erdam beradigan harakat faoliyati tarkibidagi bulaklar tushuniladi. Pedagogik jaraenida mashqning n a g i z i deb qaraladi. Texnikaning uzlashtirishi mashq texnikasining asosini urganish demakdir.

Texnikaning detali bu harakat tarkibiga kirgan, lekin uning asosiga, zvenolarini zien etkazmaydigan kushimcha harakatlar eki shu harakat mexanizmi tarkibidagi eng mayda bulaklardir.

Masalan uzunlikka sakrashda kimdir tanaga texlik berishni keskin tezlanish bilan boshlaydi, qisqa musofaga yuguruvchi ham tusiqlar osha ham tusiqlarsiz yugurish yulkasida harakatlana oladi. Start uchun start kolodkasini urnatish esa ikkala masofada turlicha, ular qaysidir detali bilan farq qiladi, lekin bu detal mashqin asosiy zvenosiga zien etkazmaydi.

R a t s i o n a l s p o r t t e x n i k a s i. Ratsional sport texnikasining asosiy qoydasi shundan iboratki faoliyatni bajarishda aktiv va passiv harakatlantiruvchi kuchlardan tuloqonli va maqsadga muvofiq ravishda foydalanib shu vaqtning uzida uni tormozlovchi (susaytiruvchi, samaradorlikni pasaytiruvchi) kuchlarni kamaytirish tushuniladi.

N`yutonning uchta qonuni mexanik harakatlari haqida gap ketganda jismoniy mashqlarning ratsional texnikasi haqida hulosaga kelish uchun mexanikaning bu qoydalariga tayanib bulmaydi. Nimaga fizika qonuniga kura, imkoni boricha balandka sakrash uchun nazariy jihatdan, sakrashni rosa chuqur urganish bilan bajarish lozim. Ammo tajriba kursatmoqdaki, insonning sakrash imkoniyati chegarasi aytarli yuqori, agar u iloji boricha katta bulmagan yarim utirish bilan depsinishda depsinish oeg`ining tizza bug`inidan qisqagina bukish, sakrash samaradarliliga ham ijobiy, ham salbiy foyda berishi mumkin.

Xulosa qilsak ratsional texnikani egallashda faqat mexanika qonunlariga tayanish bilan cheklanmay, harakatni materiyaning eng yuqori shakillariga ulardan biri bulmish biologik qonuniyatlariga ham tayanishga tug`ri keladi.

Darslikning harakatlarga xarakteristika bulimida ratsional sport texnikasining ayrim qonuniyatlari xususida suz yuritiladi. Quyida biz asosan *muskul kuchidan foydalanishning samaradarliga* tuxtalamiz.

Muskulning uta zuriqishini optimal yunalishi. Muskul kuchi belgilangan faoliyatning yunalishiga iloji boricha yaqinlashtirishi, moslashtirilishi lozim. Masalan, nayza uloqtirishda zur

berib tanaga tezlik berishimiz mumkin, lekin bu tezlik nayzani uloqtirishdagi zarbga moslanmasa, sarflanagan kuch samarasiz buladi, nayza rejalashtirilgan traektoriyada uchmasligi mumkin, past start olishda tananing og`ishi 54 va 72 gradusli burchak hosil qilgandan sung startdan chiqishning samarasi turlicha buladi. Hisoblashlar kursatmoqdaki, ikkala oeqdan 180 kg kuch birdan depsinish o`g` gradusdan start olganda, kuchning gorizontal yunalishi samaradorligi 55, 62 kg dan oshmas ekan. Agar start 54 gradusda bajarilsa depsinish kuchi samaradorli 105, 80 kg bulishi mumkin.

Harakat tezligini oshirish gavdaga tezlanish berish uchun unga anchagina kuch ta`sir etilishi lozim. U qanchalik kuchli bulsa, tanani fazoda tazlanishi shunchalik qisqa vaqt ichida tez vujudga keladi. Lekin tezlik birdaniga oshmaydi. Buning uchun kuch anchagina vaqt ichida ta`sir etib turishi zarur. Maksimal tezlik olish uchun esa uzoqroq masofa lozim va katta kuchlik bilan ta`sir etish foydalidir. Oeqning tupga tegadigan ustki qismini qanchalik orqaga chtszib tup oralig`idagi masofa uzaytirilsa, oeq kaftining tegish tezligida oshirilsa, tupning zarbi kuchayadi. Yulning chegaralanishi tezlikni kuchayishini susaytiradi.

Kuchning ta`sir etish vaqti qanchalik oz bulsa harakat tezligi shuncha yuqori buladi. Gavda qiyachiziq buylab tezlik oladigan bulsa shuncha kup ta`sir kuchi kerak buladi.

Tug`ri chiziq buylab harakat tezligi uchun qiya chiziq buylab harakat tezliliga nisbatan ta`sir kuchi oz talab qilishadi.

Kuch oshirilishning uzluksizligi va birin ketinligi. Bu qoyda N`tonning ikkita (enertsiya va tezlanish) qonunidan kelib chiqadi. Eng katta kuch harakatni boshlash uchun, tinch (turg`un) enertsiyani engish uchun kerak buladi.

Masalan shtangani kukrakka olishga harakat boshlash uchun oeqning va elkaning orqa muskullaridan, ularning kuchidan foydalaniladi. Chunki uni tuxtatish eki tinch turgan jism energiyasini ozgina bulsa da uzgartirish uchun yana qushimcha zuriqish talab qilinadi. Aslida bu zuriqishdan mashq tezligini yanada oshirishda samarali foydalansa bular ekan.

Moodo yadro turtishning qaysidir joyida harakatning ozgina sekinlashtirilishi eki ushlanishiga yul quyilsa, oldingi harakatning foydali effektidan mahrum bulib qolish mumkin.

Haraktlarning uzluksizligi va davomiyligi texnik taergarligi yuqori bulgan sportchilarda, ayniqsa uloqtirish, sakrash, suzishning barcha turlarida yaqqol kuzga tashalanadi.

Harakatlar shunday bajarilishi lozimki, unda ishtiroq etaetgan muskullar guruhining ishi tugashi bilan navbatdagi muskullar guruhi harakatni davom ettirish uchun uz ishini ulab yuborsin. Bunga albatta. Kup mehnat (mashq) qilish orqali erishiladi. Uni ustiga navbatdagi harakatlar yanada tezlik oshirilishi bilan bajarilishi lozim, ustiga ustak oldingi harakatta ishtirok

etaetgan gavdaning ma`lum qismi uz harkatini tugataetgan eki havoda muallaq qolganda davom ettirilishi lozim.

Harakat sonining bir zvenodan boshqa zvenoga utkazish. Tana harakatini soni deyilganda, gavda massasining uning tezligiga kupaytmasi (mv) tushuniladi. Texnikasi oliy darajada bajaralaetgan jismoniy mashqning bajarilishiga nazarimiz tushganda, shuni kurish mumkinki, gavdaning olohida zvenolari harakatga bir vaqtning uzida emas, ma`lum ketma-ketlik bilan jalb qilinadi. Ayrim hollarda gavdaning katta massasi uzining kichik massasidan uzib oldinga ketadi, ayrim hollarda uning teskarsiga bulishi mumkin.

Ta`sir kuchiga aks ta`sir etish. Qarama-qarshilik konuniga kura, harakatlarning barchasida aylanma, borib kelish, uchrashish, bir-birini tuldirish (kompensatsi) dek harakatlar uzining aks ta`sirini engishi lozim.

Rezina bitum yugurish yulkasida, qum yulkaga nisbatan yuguruvchi kam qarshiliksiz harakatlanadi. Yadro turtuvchi mashqni bajarish paytidagi final kuch sarflashda erda ikki eki bir oegi bilan tayana olsagina kerakli natijani kursatadi. Juft bulib mashq bajaraetgan uz kuchini ikkinchi sherigining gavdasini aylantirish uchun sarflasa, keyingisi bu kuchga etarli darajada moslab qarshi kuch vujudga keltira olishi shart. Agar usha qarshi kuchni vujudga keltira olmasa mashqning effekti yuqoladi.

Ayrim jismoniy mashqlarni bajarishda qarshilikni vujudga keltirmasdan, aks qarshilikni susaytirish, ozaytirish zaruriyati yuzaga keladi. (voleybolchilarning yiqilishi-tupni kutib olishga intilish natijasida tupni ilib olishga erishish).

Harakatlarning tavsifi. Jismoniy madaniyat uqituvchilari, tutaxassis trenerlar, fizkul`tura faollarigina emas, balki mavjud jamiyat a`zolarin barchasi uz harakati va harakat faoliyatlarini tahlil qilibgina qolmay, kasbdoshi, tengdoshi, farzandi va boshqalarning harakatlarini ham tahlil eta olishi malakasiga ega bulishi zarur.

Jismoniy mashqlar bilan shuqullanish davomi da *harakat koordinatsiyasi* degan tushunshaga duz kelamiz. Bu sifatning shvkillanish ma`erining buzilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Harakat tananing fazodagi (bushliqdagi) holatiga qarab, harakat traektoriyasiga (yuliga), harakatning yunalishiga, harakat amplituadisiga (og`ishiga) qarab, bajarish uchun sarflangan vaqtiga, harakatning tezligiga, harakatni davomiyliliga (uzunliliga), tempi, ritmi, kuchiga qarab tavsiflanadi.

Yuqorida kayd qilingan harakat holatlarini tahlil qila olsakgina harakatlarni tavsiflay olishimiz mumkin.

Amaliyda tananing fazodagi holati, harakatning traektoriyasi (yuli) ga qarab tavsiflaymiz.

Tananing holati (pozasi), buqinlar-tananing qismlari (bulaklari) ning harakati fazoda harakatning ma`lum elementlarini yuzaga keltiradi. Gavdaning ma`lum elementlarini yuzaga keltiradi. Gavda qismlarini fazoda enkaygan, bukraygan, tanani ayrim bulaklarini yig`ishtirilganligini, harakatlar davomida bu pozalar va turishlarni uzluksiz uzgarib turishi va h k lar uz navbatida jismoniy yukning hajmini ortishiga olib keladi.

Tananing vertikal holati-osilish va tayanishlar, gorizontol tayanishlar, gorizontol holatlar, gorizontol muvozanat saqlashlar, aralash osilishlar, tayanishlar h k lar. *Tanani engashtirilgan, buklangan holatlari*, tayanib etishlar, enkaygan holda oeqlar bilan oldinga, en tomonlarga «qatta qadamlar».

Tananing ayrim bug`inlari harakatlari-inson jismining ajratib olingan qismidagi ikki biologik zvenoni fazoda turish joyini uzgarishi bulib, bukish va tug`rilashdek sodda harakat fazifalarini hal qilishga yunalish berishi mumkin. Individ harakat faoliyatida uning jismi bug`inlaridagi harakatlar bir vaqtning uzidagi, ketma-ket, qator, ohista bajariladigan navbatma-navbat, eki davomiyligi qisqa uzun bulgan harakatlarga birlashishi mumkin. Shuni hisobiga harakatlarni eng soddasidan eng qiyinigacha bulgan harakat vazifalarni hal qilish imkoni yarailadi.

Harakat koordinatlari-tug`ri chiziq va burchak ulchovlarida aniqlanadigan tananig boshqa qismiga nisbatan fazoviy chegarasi, hisoblash boshlangungacha gavdaning eki uning bulaklarini nisbatan qaerdaligi (start chizig`i, gimnastika jihozi, uni uqi va boshqalar) ga nisvatan anaqlanadi.

Tananing holatlari ichida magqni bajarishni boshlashdan oldingi holat-«*dastlabki holati*» deb ataladigan qismi, mashq texnikasini uzlashtirish eki bajarishda muhim ahamiyat texnikasini uzlashtirish eki bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oldiniga u anatomiya-fiziologik vazifani hal etish e`tiborga olinsa, boshqa tomondan, shu harakatni bajarilishiga ijobiy erdam beradi.

Dastlabki holat harakatni bajarishni boshlash uchun jng optimal holat bulib harakat boshlangandan keyin bajariladigan harakatlarning ketma-ketliligiga kulaylik yaratadi. Sprinter uchun «past start» darbozabon uchun «tupni kutish holati» va h k lar.

Bu holatlarni akademik Uxtomskiy o p t i m a l h o l a t deb atadi. Kurinishidan dastlabki holat osoyishta bulsa ham aslida organizm energiya sarflash bidan qator muskullar guruhi muskul ishi bajarishga puxta taergarlik kuraetgan, nafas olish, nerv, yurak-tomir tizimi, modda olmashinuvidek keng fiziologik jaraen avjida buladi. Dastlabki holatni jismoniy mashq

bajarishdagina ahamiyat katta bulmay mashq davomida tanani qanday holda (holatda pozada) turishi muhim ahamiyatga egadir. Sprinter, stayer, marofonchi, chang`ida, kon`kida yuguruvchilarning gavdalarini vertikaligini ma`lum gradusga etgan holda ushlashi mashqni samaradorligiga ma`lum darajada (uzunlikka, balandlikka, sakrovchining depsinishdan keyingi holati) ijobiy eki salbiy ta`sir etadi.

Ayrim sport turlarida va jismoniy mashqlarda tananing umumiy holati bilan uning ayrim qismlari (bulaklari) holatlari biomexanik, maqsadga yunaltilgan bulibgina qolmay (kon`kida figurali uchuvchilar, gimnastlar, akrobatlar, suvga sakrovchilar va badiiy gimnastikachilarning harakatlari) harakatni kuzataetganlarda eki uni bajaruvchilarda estetik his tuyguni shakillantiradi va ularga zavq beradi. Harakatlarning ravonligi, ketma ketligi, erkinligi qiyinchiliksiz bajarish inson jismining qanday holatdaliliga bog`liqligi jismoniy mashqlar texnikasini egallashda, harakatni urgatish jaraenida, hatolarni aniqlash va ularni tuzatishda muhim rollarni aniqlash va tuzatishda muhim rol uynaydi.Harakatning yuli (traektoriyasi) jismoniy mashq texnikasini uzlashtirishda, uni namoyish tanalishda muhim ahamiyatga ega. Mashqni bajarishda tana harakati yulining qanday shakldaligi,

yunalishi va harakatning amplitudasi qandayligini aniqlay olsak, ajratsakgina gavdaning (eki uning qismlari) harakatini aniqlaymiz. Inson organizmning anatomiyasini turlicha ekani bir hil harakatni har bir hil individ uchun turlicha harakat yulini tanlashni taqazo qiladi.

Harakatning shakliga qarab ularning tug`ri chiziq buylab bulishi mumkinligi aniqlanadi. Kuzatishlar shuni kursatadiki, individning harakati hech qachon tug`ri chiziq buylab bulmas ekan. Oddiy harakatlar ham qator muskullar guruhini turlicha aylanma harakatlardan iborat. Ularning organizmining energiya sarflashi uchun samarali tomoni katta bulib, tananing ma`lum bulaklardagi harakatlarni bajara olish imkonning yaratilididir. Masalan bakschi zarbasi uchun elka muskullarining ma`lum qismigina turlicha harakat qilsagina bas, lozim bulgan maqsad amalga oshadi.

Harakatning yunalishi-mashqning effektivligi shunda ortadiki, bajarilishi lozim bulgan harakat uchun kerak bulgan muskullar mashqning texnikasini aniq, ravon bajaradi: qullarni tarsakdan kukrak oldida kaftlarni pastga qilib bukkan holda «ro`vok» larning bajarilishi kukrak muskullarini taranglatadi va bushatadi. Agar shu harakatni tirsakni bir oz pastga tushirgan holda bajarsak, mashq uz ahamiyatini yuqotadi. Basketbol tupini savatga tushirish uchun tupning yunalishi olti gradusdan turt gradusgacha uzgartirish tupni savatga tushishi imkoniyatini yuqqa chiqarishi mumkin.

Amaliyda harakatning yunalishi tananing saxiga eki biror muljaliga qarab belgilanadi. Qulni oldinga kutarishda bir gavdaga nisbatan uni holatiga qarab harakat yunalishini

belgilaymiz. Yadroni ma`lum balandlikka urnatilgan «planka» ustidan oshirib turtishda bizga muljal bulib planka xo`zmat qiladi.

Inson tanasi pastga-yuqoriga, oldinga-orqaga, unga-chapga, toman yunalishda harakat qiladi.

Harakatni amplitudasi-harakatning og`ishidir. Fizikada amplituda deb mayatnikning tinch holatiga nisbatan ung va chopga og`ishi (graduslari) tushuniladi. Bihda esa tananing ayrim qismlarining og`ish harakati tushuniladi. Tug`ri yunalishdagi harakatning amplitudasi qadamning uzunligi (o`5sm) eki shartli belgisiga qarab, yarim tula utirish va boshqalar orqali aniqlanadi. Odam tanasining ayrim qismlarning amplitudasi usha tananing bug`inlari elastikligiga bog`liq buladi.

Harakatlar aktiv va passiv muskul qisqarishida ruy beradi. Sport trenirovkasida, turmush sharoitida buladigan ishlar harakatning ampiludasiga bog`liq. Katta quzg`alish uchun moslashtirilmagan muskulni katta amplitudada harakat qilishga majbur qilish shikastlanishga olib keladi. Agarda harakatning amplitudasi quyilgan vazifa talablariga javob bermasa, u harakatlar aniq harakatlar sifatida namoen bula olmaydi. Harakatlar ajralish vaqtlariga kura ham tavsiflanadi.

Harakatning tezligi deb inson jismini eki uni ayrim bulagini ma`lum vaqt birligi ichida fazoda urin almashishi tushuniladi. Boshqachasiga-tezldik yul uzunligini tananing eki uni ma`lum qismini shu yulni bosib utish uchun sarflangan vaqtga nisbati bilan ulchanadi. Tezlikni aniqlashda metr soniyadan (m/s) foydalaniladi.

Yulning hamma nuqtalarida harakat tezligi bir hil bulsa, bu harakat maromli *t e k i s h a r a k a t* eki yulning ayrim nuqtalarida tezlik har-hil bulsa, bu harakat maromsiz *n o t e k s h a r a k a t* deb tushuniladi.

Qisqa vaqt davomida tezlikni oshirilishi *t e z l a n i s h* deb ataladi.

Harakat *i j o b i y* va *s a l b i y* ham bulishi mumkin. Harakat yuqori tezlikda boshlanib, maromi tezlashib va sekinlashib tursa, bu kabi harakat *k e s k i n h a r a k a t* deb nomlanadi.

Odamda doimiy tezlik va tezlanish bilan bajariladigan harakatlar onda-sonda uchraydi. Bundan tashqari, teznikasi tug`ri bajarilgan jismoniy mashqlarda birdaniga tez eki sakrashlar bilan bajariladigan mashqlar bulmaydi. Notug`ri bajarilgan mashqlar tezligi tez sakrashlar orqali bajariladi.

Ayrim hollarda *harakatning tezligi deganda, tananing harakat tezligi tushunilmay,* uning ayrim bulaklari (qismlari) tezligi ham tushuniladi.

Yuqoridagilar, bug`inlarning uzun-kaltaligi, tashqi muhit ta`siri qarshiligi, harakat qobiliyatlarining turli tumanligidek boshqa faktorlarga ham bog`liq bulib tezlikni namoen qilishda etakchi urinni egallaydi. Sportchida harakat tezligi asosiy sifatlardan biridir. Tezlikni yuqori bulishi yuqori kursatkich omilidir. Tezlik namoen qilishdan kura uni ushlay olish (musoboqa, mashq bajarish davomida) muhim rol uynaydi. Tezlikni oldindan rajalashtirilgan jadval buyicha ushlay olish muntazam mashg`ulotlar orqali erishiladi.

Harakatni davomiyligi. Harakatni uzoq davom etishida asosiy rolni tananing qismlari egallaydi. Mashqni bajarilish muddatini uzgartirib, ya`ni bajarilish vaqtini ozaytirib eki kupaytirib, darsning umumiy nagruzkasiga ta`sir etish mumkin. Jismoniy mashqlar texnikasida harakatni ayrim zvenolarini uzunligi (uloqtirish uchun yugurish, suzishda qulosh otish, chanqida sirqanish va h k).katta ahamiyatga ega bulib, bajarilaetgan ish eki uni muddati haqida axborotlar berib turiladi.

Harakatning tempi deganda harakat tsiklining qaytarilish chistotasi eki ma`lum vaqt ichida bajarilgan harakat tushuniladi. Yurish tempi mitutiga 120-140 qadamdan, eshkakni suvga botirish tezligi 20-40 marotaba buladi. Tempi bilan tezlikni farqlashimiz lozim. Masalan, qulni bir tempda turli balandlikka kutarish va tushurish harakatini takrorlash mumkin, lekin bunda qul harakati tezligi turlichadir. Yugurish qadamlarinig uzunligi bir hil bulmasada, qadam chistotasi bir maromda bulsa yugurish tezligi ham turli hilda buladi.

Harakat ritmi deganda, aktiv muskul zuriqishi va taranglashining ma`lum vaqt ichida passiv va kuchsiz harakat fazalari bilan bog`liq holda namoen buladigan xarakterli tamonlarini tushunamiz. Bu hususiyat har qanday tuliq harakat aktida mavjud buladi. Shunday qilib harakat ritmining fazoda ma`lum vaqt davomida zuriqishning harakat tizimi tarkibida nisbatan tug`ri va uz urnida uyushtirilishi bilan belgilashimiz mumkin. Har qanday, hatto natug`ri bajarilgan harakat akti tarkibida ham (harakat bulaklarining uzun qisqaligiga bog`liq) ma`lum harakat ritmi bor. Demak ritm ratsional, tug`ri, yuqori natijaga olib keluvchi eki noratsional, natug`ri natija samarasini pasaytiruvchi bulishi mumkin. Ritmni majburiy sharti mavjud harakat tarkibida kuchli, uni boshqa bulaklariga nisbatan urg`u beradigan, e`tiborga loyiq harakat tarkibidagi hodisa (harakat) ning borligi ularning urin almashinuvini ma`lum vaqt intervalida takrorlanishdir.

Ratsional sport texnikasini egallashning eng ahamiyatli kursatkichlaridan biri jismoniy mashqni bajarishda muskul zuriqishning tug`ri va uz vaqtida navbatlashuviga erishishdir. Harakatning aktsent (e`tibor) beradigan qismiga eng kuchli zuriqish tuplanadi. Bu zuriqishdan kelib chiqqan harakat ma`lum vaqt passiv davom etadi. Aktsent berilgan davrning intensivligi

qanchalik kuchli bulsa, ish samarasi shuncha yuqori buladi, harakatning passiv fazasidan tuloqonli foydalanish mumkin.

Trenirovkalar ta'siridan zuqriqishning keskin kuchayishi va pasayishi hamda harakatning aktiv va passiv fazalarining davomiyligi, chuzilishi mumkin. Yuqori malakali sportchilarda harakat ritmi standart sharoitda turg'un xarakterda buladi. Har qanday aniq harakat faoliyatli ma'lum shaxs tomonidan texnik jihatdan yuqori maqom darajasida bajarilsa shu mashqni bajarishdagi ratsional ritm e'tiborimizga tushadi. Lekin uni har qanday ritmga ham abstrakt holda qullash mumkin buladigan «ritm» deb qarash natug`rividir.

Har bir sportchini individual xususiyatlari evaziga xarakatni bajarishda uz ritmi buladi. Lekin ritmdagi variatsiya belgilangan chegarada ushbu faoliyatning asosiy ratsional strukturasi chiqmasligi kerak. Shunga kura, ritm harakat faoliyati tarkibidagi alohida-alohida elementlarni bir butun qilib bog`laydi, harakatni tezlashtirish eki sekinlashtirish bilan uning umumiy ritmik shakli uzgarmaydi.

Jismoniy mashqlarning ritmlari inson tomonidan ongli ravishda ratsional texnikaning ob`ektiv qonunlari asosida shakillantiriladi va boshqariladi.

Ta`lim jaraenida shug`ullanuvchi eki uquvchiga harakatning aktsent berilgan qismlariga vaqtning qisqa muddatlarida katta zuriqishni tuplab, uni ishlataolsa, asosan ishlaetgan muskullarni birlashtirib ularga dam berish imkoni yaratiladi. Natija esa yaxshi buladi. Yuqori malakali sportchilar, tsirk artistlari mashq bajarishdagi uzlari uchun moslab shakllantirgan ritmlar asosida harakatning aktsent beradigan qisminigina katta zuriqishda bajaradilar.

Harakatlarning kuchi inson jismi eki uning ayrim qismlari harakatiga ta'sir qiladigan kuchlarni i ch k i va t a sh q i kuchlarga bulamiz.

I ch k i k u ch g a:

a) harakat tayanich apparatining passiv kuchi-muskulning elastikligi va boshqalar~

b) harakat apparatining aktiv kuchi-muskulni tortishga olish kuchi~

v) reaktiv kuchlar-tana muskullari zvenolarining uzaro munosabatida vujudga keladigan, yuqori tezlanish hosil qiladigan, tezlanish harakatlari bilan namoen buladigan kuch.

T a sh q i k u ch~ - inson jismiga tashqaridan ta'sir qiladigan kuchlar~

a) tananing uz og`irligi (vazni) dan vujudga keladigan kuch~

b) tayanish teaktsiyasi kuchlari~

v) tashqi ta'sir qarshiligi (suv, havo) ni engish va jisman tashqi ta'sirga qarshi (yakka kurashlar) kuch namoen qilish, inertsiya kuchi va boshqalar.

Harakat kuchi deb amaliyda harakatdagi tananing qismini biror tashqi ob`ektga jismoniy ta`siri qabul qilingan. Bu atamadan balandlikka sakrashda depsinish kuchi, sambo va

qilichbozlikda raqibning qarshi bosimi (jismoniy mashq dinamikasi) tushuniladi. Amaliyda harakatning bir necha parametrini kompleksli ifodalovchi umumlashtiruvchi sifatidagi harakatlardan ham foydalaniladi.

a) t u g` r i h a r a k a t l a r, qaysiki yunalishi, amplitudasi tezligi va boshqalari bilan quyilgan harakat vazifasiga mos keladi~

b) n a t u g` r i h a r a k a t l a r, ya`ni qisman bulsada, quyilgan harakat vazifasiga muvofiq bulmagan harakatlar~

v) t e j a m l i h a r a k a t l a r, kuzlangan maqsadga minimal darajada kerak bulganlari~

g) t e j a m s i z h a r a k a t l a r, ortiqcha kerak bulmagan muskul zuriqishi orqali bajariladigan harakatlar~

d) j a d a l l i k bilan bajariladigan harakatlar~

e) k u c h n i y a q q o l n a m o e n bulishini talab etadigan harakatlar~

j) s u s t harakatlar~

Sifat jihatidan ayrim harakatlarni suz bilan ifodalab bulmaydi, ularni biror jonli zot harakatiga qieslab tushuntiriladi.

Jismoniy mashqlar klassifikatsiyasi Jismoniy mashqlarni klassifikatsiya qilish-uni turkumlash ya`ni ularni alohida ajratilgan hususiyatlariga kura guruhlash tushuniladi.

Jismoniy tarbiya tizimlarining tarixiy bosqichlarida jismoniy mashqlar tanlash va turkumlashda usha jamiyat uchun progressiv va tarbiya vazifasini bajarishga mos keladiganlarigina e`tibor berilagan.

Tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida tarbiyaning maqsad va vazifasi uzgarib turgan, demak, jismoniy tarbiya tizimi ham uzgargan, bu esa uning omillarining ham uzgarishiga sabab buldi.

Gretsiyada tarixiy besh kurash-pentatlon, Guts-Mutsning tabiiy harakatlari, Pestalotstsi va Shpisning XVhhh asr uchun tanlangan «elementar harakatlari» va boshqalar. Demak davr uzgarishi bilan jismoniy tarbiya tizimi, uning vazifalari va vositalari uzgardi.

Shvedlarni pedagogik gimnastikasida jismoniy mashqlar anatomik hususiyatiga qarab klassifikatsiya qilindi, chunki ular tizimining asosiy maqsadi tana tuzilishining kurinishi yaxshilash edi. Bu esa jismoniy tarbiya tizimining yunalishini torroq bulishiga olib keldi.

Sokol gimnastikasi jismoniy mashqlarning tashqi formasiga qarab sport jihazida bajariladigan, sport jihazisiz bajariladigan mashqlar bulgan yangi jismoniy mashqlar guruhlari deb turkumlanadi. Buning ijobiy tomoni shundaki, paydo bu turkumlarning birida uz urnini topar edi.

Frantsuzlarning Eber sistemasida jismoniy mashqlar qisqa utilitar mazmuniga qarab, yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, og`irlik kutarish mashqlari, uloqtirish, suzish, xujum va ximoya qilish mashqlari deb turkumlanadi.

Avstriya pedagoglari klassifikatsiyasi ham keng qamrovli emas edi.

Jismoniy mashqlarning original klassifikatsiyasini rus anatomik, vrachi pedogogik P F Lesgaft ishlab chiqib, maktab eshidagilarda jismoniy tarbiyani amalga oshirish uchun muljalladi va quyidagicha asosiy guruhlariga buldi.

1. Sodda mashqlar.
2. Murakkab mashqlar eki yuklamaning ortishi bilan bajariladigan mashqlar
3. Fazodagi holatiga eki muskul ishining bajarilish vaqtiga kura bajariladigan mashqlar
4. Texnik jihatdan qiyin, tizimli ravishda bajariladigan mashqlar.

Mashqlarning turkumlanishi kursatib turibdiki, P F Lesgaft klassifikatsiyasi didaktik printsiplarga yunaltirilgan. Lekin bu ham jismoniy tarbiya tarixiy omillarini tulakonli uz tarkibiga sig`dira olmagan. Hozirgacha tuliq ilmiy asoslangan jismoniy mashqlar klassifikatsiyasi mavjud emas. Sobiq Sovet jismoniy tarbiya tizimi ham vazifani uddalay olmadi.

Jismoniy mashqlarni tarixiy klassifikatsiyasi. Tarixan jismoniy mashqlar - u y i n l a r tarzidagi, g i m n a s t i k a kurinishidagi, s p o r t va t u r i z m mashqlariga turkumlangan edi.

Uyinlar , gimnastika sport turizm jismoniy tarbiya tizimining asosiy omillari sifatida tan olinib kelingan va hozirgi kunda ham mashqlar klassifikatsiyasi tarkibida uz ahamiyatini yuqotgani yuq. Kupchilik olimlarning fikriga qarama-qarshi ularoq har doyim uzgarishda.

Tarixiy qabul qilingan jismoniy mashqlar turkumi davr utishi bilan uz urnini uzidan progressiv bulganlarga bushatib bermaqda eki usha mashqlar rivojlanmoqda, takomillashtirilmoqda. Jismoniy tarbiya jaraenida ularning asosiy omilligi tarbiya tizimlarida ilmiy asoslangan. Demak uyin gimnastika mport turizm tarkibiga kirgan jismoniy mashqlar turkumi deyish bizda ayrim hollarda natug`ri fikr tug`dirish mumkin. Chunki sport turkimiga kirgan yugurish, yurish sakrashlar jismoniy mashq sifatida uyinlarda, gimnastika tarkibida turizm mashqlari tarzida ham uchrashi mumkin. Mashqlar bir biri bilan uzaro uzviy bog`liq holda foydalaniladi.

U y i n a t a m a s i hilma hil faoliyatni ifodalaydi. Tabiat uyini va boshqalar. Madaniyat sohasi buyicha esa, akter uyini, olimpiada uyinlari eki sport uyini bularning hammasi hilma-hil ma`no beradi.

Uyin tarixiy tuplangan ijtimoiy hodisa sifatida faoliyatning ayrim turi hisoblanadi. Uzining haetiy ahamiyati orqaligina jamiyatda uziga qiziqish uyg`otadi va ayrim odamlarni uziga tortadi.

Uyin faoliyatida odam uzini urab olgan muhit bilan uzgacha alohada, bir maqsadqa yunaltirilgan faoliyatda buladi va jismoniy ham aqliy qobiliyatini mashq (trenirovka) qildiradi. Mexnatdan farqli ularoq, uyin paytida moddiy ne`mat bevosita foydalanmaydi. Uyin sharoitida hilma-hil harakatni tanlash imkoniyati bor. Bu esa uynovchining uz his-hayajonini, ijodiy qobiliyatini, faolligini hamda tashabbusini ishga solishga majbur qiladi.

